

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DAMINOVA NIGORA KUDRATOVNA

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALAR KASBIY
IJTIMOIYLASHUVINING PEDAGOGIK MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Daminova Nigora Kudratovna

Globallashuv sharoitida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvining pedagogik mazmunini
takomillashtirish..... 3

Даминова Нигора Кудратовна

Совершенствование педагогического содержания профессиональной
социализации студентов в условиях глобализации 25

Daminova Nigora Kudratovna

Improving the pedagogical content of professional socialization of young people in
the context of globalization 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 54

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DAMINOVA NIGORA KUDRATOVNA

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALAR KASBIY
IJTIMOIYLASHUVINING PEDAGOGIK MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.Phd/Ped4755 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Begmatova Dilnoza Muxtarovna**
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar: **Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**
pedagogika fanlari doktori, professor
Narzikulova Dilnoza Xoshimjonovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «6» oktabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366)239-12-29, faks: (0366) 239-13-87, e-mail: kengash-pf@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (106 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «20» 09 da tarqatildi.
(2023-yil «20» 09 dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).



A.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, dotsent

E.A.Abdumannatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

N.Sh.Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqiyosida talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvi jarayoni hozirgi zamon pedagogika fanining muhim muammosi sifatida e'tirof etilib, oliy ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy tarbiyani tashkillashtirishning innovatsion mazmunini takomillashtirish, talabalarni maqsadli kasbga yo'naltirishning interaktiv dasturiy vositalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda yoshlarning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni jamiyat-ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tendensiyalari tahliliga ko'ra aniqlash, motivatsion komponentlar asosidagi faoliyatning ongli munosabatlarni tarkib toptirishdagi imkoniyatlarini aniqlash hamda kasbga yo'naltirish tadbirlarining ta'sirchanligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, globallashtirish sharoitida talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirish nazariyasiga tayangan holda oliy ta'lim tashkiloti, oila va boshqa ijtimoiy institutlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish hamda takomillashtirish orqali talabalarda ijtimoiy ongni tarbiyalash ahamiyatini dolzarblashtirmoqda.

Dunyo miqiyosida kasbiy ijtimoiylashuvning asosiy omillari, ta'sir etish masalalari, kasbiy ijtimoiylashuvda ma'naviy, axloqiy, ma'rifiy, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy hayot mezonlari, milliy urf-odatlarini yangi avlodlarga yetkazishning asoslari keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Xususan, shaxs va uning shakllanishining pedagogik-psixologik va ma'naviy aspektlarini, shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishning pedagogik asoslarini zamonaviy mexanizmlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan birgalikda talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda oliy ta'lim tashkilotlarining rolini oshirish, ularning kasbiy jihatdan muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik mazmunini insonshunoslik fanlari integratsiyasi asosida takomillashtirish mazmunini boyitish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda shaxs rivojlanishi, barkamol avlod tarbiyasi va inson omili masalasi ta'lim islohotlarining asosiy mazmunini tashkil etib, oliy ta'lim tashkilotlarida kasbiy ta'lim va ma'naviy tarbiya asosi sifatida talabalarni ma'lum darajada tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, talabalar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada talabalarga jamiyatdagi o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, ularning kasbiy raqobatbardoshligini ta'minlash uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. "Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish"¹ vazifasi belgilanib, bu borada talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirishning milliy xususiyatlarini tahlil etish, kasbiy yo'naltirilgan tarbiya jarayonining tashkiliy tuzilmasini talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

mazmunini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shaxs va uning shakllanishining pedagogik-psixologik va ma'naviy aspektlari R.Jo'rayev, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Maxmudova, U.Mahkamov, M.Inomova, M.Quronov, Sh.Xalilova, S.Shodmonova, Sh.Olimov, ijtimoiy tarbiya, shaxs ijtimoiylashuvi, shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishning pedagogik asoslari N.Egamberdiyeva, M.Quronov, F.Mustafayeva, Z.Qurbonniyozova, D.Begmatova, J.Ibragimov, M.Jo'rayev, D. Miraliyeva kabilar tomonidan o'rganilgan. Talaba-yoshlarni kasbiy shakllantirish, kasbiy mahorat, kasbga yo'naltirish masalalari R.Jo'rayev, U.Nishonaliyev, E.Choriyev, N.Shodiyev, Sh.Sharipov, N.Muslimov, K.Mirsaidov, K.Zaripov, J.Yo'ldoshev, B.Nuriddinov, A.Akmalov, A.To'rayev, N.Akbarovlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvi masalasi N.Egamberdiyeva, Z.Saliyeva, Z.Maxmudovlar tomonidan maxsus tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlaridan V.I.Dashicheva, A.V.Vaxrameeva, E.L.Anufrieva, N.V.Astraxanseva, E.M.Zaxarova, V.F.Kostyukevich, A.I.Shcheglov, N.G.Astafyeva, S.G.Vershlovskiy, V.S.Zbarovskiy, S.I.Zmeev, Yu.N.Kulyutkina, L.N.Lesoxinalarning tadqiqotlarida yoshlarni ijtimoiylashtirishning turli jihatlarini o'z aksini topgan.

Ijtimoiylashuv muammolari sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, tibbiyot kabi sohalarining bir qator xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ko'rib chiqilgan. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonini o'rganish E.Dyurkgeym, T.Parsons, K.Mankgeym, V.Styuart, V.Tomas, Z.Freyd kabi mashhur xorijlik olimlarning asarlarida uchraydi.

Biroq oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik, ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot ishlari Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Xorijiy tillarni o'qitishning innovatsion metodlari va pedagogikaning dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi globallasuv sharoitida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvining pedagogik mazmunini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kasbiy ijtimoiylashuvning bevosita ishtirokchisi hisoblangan ijtimoiy guruh sifatida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvining asosiy elementlarini ajratib ko'rsatish;

bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi hamda mehnat bozori talablari o'rtasidagi bog'liqlikdan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotlari o'quv-tarbiya jarayoni doirasida kasbiy ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va mexanizmlarini ko'rib chiqish;

ta'lim sohasi pedagogika bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining kasbiy-funksional va kasbiy-ijtimoiy fazilatlariga hududiy mehnat bozorining asosiy talablarini aniqlash;

oliy ta'lim tashkiloti talabalarining uzluksiz ta'lim tizimida samarali kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlash, shuningdek, keyinchalik faoliyat jarayoniga qo'shilishini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida uchta oliy ta'lim tashkilotlarining 621 nafar respondent-talabalarini ishtirok etishdi.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlash jarayonining pedagogik mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishlarini amalga oshirishda so'rovnoma, suhbat, pedagogik kuzatuv, ekspert baholash, savol-javob, nazariy tahlil, qiyosiy-tipologik va analitik metod, umumlashtirish, matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kasbiy ijtimoiylashuv jarayonida bevosita ishtirok etuvchi ijtimoiy guruh sifatida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvining asosiy xususiyatlari ijtimoiylashtirish mexanizmining darajalariga muvofiq keluvchi elementlar funksional imkoniyatlarining talabalar kasbiy o'zini-o'zi belgilash pozitsiyalariga ijobiy ta'sirini belgilash asosida aniqlashtirilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarining o'quv-tarbiya ishlari doirasida kasbiy ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik mazmuni, mehnat bozori talablari va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi hamda ijtimoiylashuvi o'rtasidagi bog'liqlik xususiyatlariga asoslangan holda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni

shakllantirishning texnologik va metodik ta'minotini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

globallashtirish sharoitida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish modeli oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining kasbiy-funksional va ijtimoiy-kasbiy fazilatlarini mehnat bozorining asosiy talablariga muvofiqlashtirish maqsadiga ko'ra ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi perseptiv muloqot mexanizmlarining ijtimoiylashtirish imkoniyatlarini belgilash asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tashkiloti talabalarining uzluksiz ta'lim tizimida samarali kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlash va keyinchalik ijtimoiylashuv faoliyati jarayoniga qo'shilishini optimallashtirishning asosiy yo'nalishlari "talaba – OTT" tizimidagi o'zaro munosabatlarga oid muammoli-situatsion komponentlarning adaptativ imkoniyatlariga bog'liqlikda aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarining kasbiy tayyorgarligi uchun mehnat bozori talablariga javob beradigan o'quv jarayonini yaratish orqali oliy ta'lim tashkilotida kasbiy ijtimoiylashuv samaradorligining yuqori darajasini ta'minlaydigan takliflar ishlab chiqilgan;

kasbiy ijtimoiylashuvga doir oliy ta'lim tashkilotlari uchun xos bo'lgan shart-sharoitlar, xususiyatlar va yechilishi lozim bo'lgan muammolar qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik jihatdan ishlab chiqilgan va mavjud pedagogik jarayon ilmiy holislik asosida baholangan;

oliy ta'lim tashkilotlarida kasbiy ijtimoiylashuvni ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik shakl, usul, vosita va shart-sharoitlar pedagogik eksperimentdan o'tkazilgan hamda samaradorlik xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvi jarayoniga doir ilmiy-nazariy qarash va g'oyalar, xorij tajribasi o'rganilganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining dissertasiyaning nazariy mazmuniga muvofiqligi bilan ta'minlandi. Xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga tadbiiq etilgan, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogika fani oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida kasbiy ijtimoiylashuvni ta'minlashga oid nazariy yondashuv, g'oyalar, tavsiyalar bilan boyitilganligi, mavjud oliy ta'lim tashkilotlarida tarbiya tizimi mazmuni yangi qarashlar bilan takomillashtirilganligi, ta'lim tashkilotlarida tarbiya tizimi faoliyatini jamiyatdagi tub o'zgarishlar jarayoniga maqsadli yo'naltirish va uning samaradorlik darajasini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallari oliy ta'lim tashkilotlarining o'quv rejalarini tuzishda, amaliyot va malaka oshirish kurslarini tashkil etishda hamda turli qo'shimcha o'quv dasturlarini amalga oshirishda yordam berishi, shuningdek, bildirilgan tavsiya, ishlanma va qarashlardan oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish, mutasaddi bo'lgan tuzilmalar ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini samarali tashkil qilish, ta'lim

tashkilotlarida ta'lim-tarbiya bo'yicha darslik, qo'llanma va o'quv materiallari mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida:

kasbiy ijtimoiylashuv jarayonida bevosita ishtirok etuvchi ijtimoiy guruh sifatida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvining asosiy xususiyatlari ijtimoiylashtirish mexanizmining darajalariga muvofiq keluvchi elementlar funksional imkoniyatlarining talabalarning kasbiy o'zini-o'zi belgilash pozitsiyalariga ijobiy ta'sirini belgilash asosida aniqlashtirishga oid ma'lumotlardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasidagi 2023-yil 20-mart kuni efirga uzatilgan "Assalom, Samarqand" ko'rsatuvining navbatdagi ssenariysini tayyorlashda hamda O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika institutida bajarilgan JHBL-22-sonli "Oiladagi jinoyatlar va zo'rvonliklar, oiladagi kriogen muhit, kelib chiqish sabablarini tadbiq etish" mavzusidagi qisqa muddatli ilmiy loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 30-martdagi № 01-07-101-sonli ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 15-iyundagi № 02-07-2327/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarga globallashtirish sharoitida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvi bo'yicha ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar haqida kerakli ma'lumotlar berish, talabalar kasbiy ijtimoiylashuvining asosiy elementlarini ajratib ko'rsatishga sharoit yaratilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarining o'quv-tarbiya ishlari doirasida kasbiy ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik mazmuni, uning mexanizmlari mehnat bozori talablari va bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi hamda ijtimoiylashuvi o'rtasidagi bog'liqlik xususiyatlariga asoslanib, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning texnologik va metodik ta'minotini aniqlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika institutida bajarilgan JHBL-22-sonli "Oiladagi jinoyatlar va zo'rvonliklar, oiladagi kriogen muhit, kelib chiqish sabablarini tadbiq etish" mavzusidagi qisqa muddatga mo'ljallangan ilmiy loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 15-iyundagi № 02-07-2327/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoni doirasida kasbiy ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va mexanizmlarini aniqlash imkoni kengaytirilgan.

globallashtirish sharoitida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish modeli oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining kasbiy-funksional va ijtimoiy-kasbiy fazilatlarini mehnat bozorining asosiy talablariga muvofiqlashtirish maqsadiga ko'ra ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi perseptiv muloqot mexanizmlarini ijtimoiylashtirish imkoniyatlarini belgilash asosida takomillashtirishga oid takliflar Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational Linguistics at Central Asian universities" ("O'rta Osiyo

OTTlarida kompyuter lingvistikasi”) nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 22-maydagi № 1323/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 15-iyundagi № 02-07-2327/04-sonli ma’lumotnomasi). Natijada bitiruvchilarning kasbiy-funksional va ijtimoiy-kasbiy fazilatlariga xududiy mehnat bozorining asosiy talablarini aniqlash imkoni yaratilgan.

oliy ta’lim tashkilotlari talabalarini uzluksiz ta’lim tizimida samarali kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlash va keyinchalik ijtimoiylashuv faoliyati jarayoniga qo‘shilishini optimallashtirishning asosiy yo‘nalishlari “talaba – OTT” tizimidagi o‘zaro munosabatlarga oid muammoli-situatsion komponentlarning adaptativ imkoniyatlariga bog‘liqlikda aniqlashtirishga oid xulosalar O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika institutida bajarilgan JHBL-22-sonli “Oiladagi jinoyatlar va zo‘ravonliklar, oiladagi kriogen muhit, kelib chiqish sabablarini tadbiq etish” mavzusidagi qisqa muddatli ilmiy loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 15-iyundagi № 02-07-2327/04-sonli ma’lumotnomasi). Natijada oliy ta’lim tashkiloti talabalarini uzluksiz ta’lim tizimida samarali kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlash samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari jami 9 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 5 ta respublika miqiyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ishlar, shulardan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 4 ta maqola, 6 ta xorijiy, 1 respublika jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, metodologik asosi, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan hamda himoyaga olib chiqilayotgan ilmiy g‘oyalar taqdim etilgan.

Tadqiqotning “**Globallashuv sharoitida talabalar ijtimoiylashuvini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari**”, deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiylashuv tushunchasining mohiyati va mazmuni, ijtimoiylashuv jarayonlarini tashkil etish strukturasi va oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning ijtimoiylashuvini tashkil etish xususiyatlari tahlil qilingan.

“Ijtimoiylashuv” atamasi Z.Freyd tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U ushbu toifani faqat “erta ijtimoiylashuv” deb tushunadi, unda uchta bosqichni ajratib ko‘rsatadi: og‘zaki, anal va genital. Z.Freyd, agar u atrof-muhit talablarini va ongning kuchli ta’sirlarini muvozanatda saqlashni o‘rgana olsa, bola avtonom mavjudotga aylanadi degan fikrni ilgari suradi. Ijtimoiylashuvga Freyding yondashuvi asosida kelajakda ijtimoiy boshqaruvda uch tomonlama ta’sir qilish usuli ishlab chiqiladi. Z.Freyd tushunchasiga ko‘ra, shaxs uch komponentli tuzilma sifatida qaraladi. Shaxsni turli xil fazilatlarning tuzilishi sifatida tushunishdan kelib chiqadiki, xulq-atvorni samarali boshqarishga faqat fiziologiya doirasida tavsiflangan jarayonlar va psixologiya tomonidan o‘rganilgan jarayonlar o‘rtasidagi munosabatlar asosida erishish mumkin [136; 67-b].

Z.Freyd tushunchasiga muvofiq, shaxsni boshqarish obyekti deb hisoblasak, unda ongsiz, ongli va vijdon tushunchalari bilan bog‘liq formulali reaksiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu ularning har biriga ushbu tuzilmalarga maqsadli ta’sir ko‘rsatish zarurligini anglatadi. Shunday qilib, uch tomonlama ta’sir qilish usuli inson xatti-harakatlarining ongli va ongsiz sabablarini va uning shaxsiyatining har bir tuzilishiga tizimli, maqsadli ta’sirini aniqlashdan iborat.

Ongga ta’sir ishontirish, taklif qilish usuli bilan va o‘quv jarayonida, vijdonga (boshqaruv tizimiga) – axloqiy ta’qiqlar tizimini kuchaytirish, ongsiz ravishda – inson ijtimoiy tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan harakatlarni qilishga o‘rgatilganligi bilan amalga oshiriladi. Bunday usullarni qo‘llash zarurati ijtimoiy tashkilotning tashqi, ichki omillarning ta’siri natijasida yuzaga keladigan ichki jarayonlardan ma’lum darajada himoya qilishni kafolatlashi bilan bog‘liq.

Ijtimoiylashuvni jarayon sifatida birlamchi va ikkilamchi qismlarga ajratish mumkin. Birlamchi ijtimoiylashuv – bu shaxs bolaligida duch keladigan ijtimoiylashuvdir. Bu jarayon “qarindoshlar” va “do‘stlar” doirasida amalga oshiriladi. Ikkilamchi ijtimoiylashuv esa rasmiy institutlar doirasida amalga oshiriladi. Bu jarayon talabalarning ijtimoiy faolligida namoyon bo‘ladigan yangi bilimlarni, shaxs tarbiyasiga oid qadriyatlarni o‘zlashtirishning keyingi jarayoni bo‘lib hisoblanadi. Buning natijasida esa ma’lum ijtimoiy mavqe va rollar to‘plamini o‘z ichiga olgan me’yoriy-mazmunli mezon yuzaga keladi.

“Identifikatsiya” tushunchasini bir qator psixolog olimlar o‘rganishgan. Bu tushunchaning turlicha talqinlari mavjud. Taniqli psixolog Z.Freydga ko‘ra, identifikatsiya psixologik jarayon bo‘lib, bu jarayonda shaxs boshqa shaxsning biron jihatini yoki xususiyatini o‘zlashtiradi, natijada esa uning shaxsiyati boshqa shaxsning qiyofasi va o‘xshashligida qisman yoki to‘liq o‘zgaradi. Ijtimoiy psixologiyada identifikatsiya tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: identifikatsiya – bu shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, qadriyatlari, jamiyatning ijtimoiy me’yorlari, ijtimoiy munosabat va ijtimoiy rollari asosida yuzaga keladigan ma’lum bir obyekt, shaxs yoki jamoa bilan aniqlash mumkin bo‘lgan jarayon hisoblanadi.

Shubhasizki, oliy ta’lim tashkilotlarining talabalar jamoasi kabi o‘ziga xos ijtimoiy guruhni ijtimoiylashtirishda ijtimoiylashuv jarayonining barcha mavjud shakllarini hisobga olish kerak. Asosiysi e’tibor kasbiy ijtimoiylashuvni tashkil

etish va rahbariyat ta'sirining samaradorligini oshirishga, shuningdek, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan elementlarni kamaytirishga e'tibor qaratiladi.

Shunday qilib, oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarni jamoada ijtimoiylashtirish quyidagi besh darajali mexanizmlardan iborat bo'lishi mumkin:

1) bilim va tarbiya me'yorlarini, jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarini talabalarga uzatish;


2) oliy ta'lim tashkiloti talabalarini ijobiy namunaga yo'naltirish uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlar yaratish;

3) bilim va tarbiya me'yorlarini, jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarining talabalar tomonidan o'zlashtirilishi;

4) oliy ta'lim tashkilotida talabalarning ijobiy ijtimoiy faolliklarini oshirish uchun shart-sharoit yaratish;

5) professor-o'qituvchilar va ma'muriyat a'zolari tomonidan doimiy nazoratni yo'lga qo'yish.

Barqaror ijtimoiy hamjamiyat sifatida, jamiyat katta ijtimoiylashuv makrotizimi darajasida yagona ijtimoiy tizimga birlashtirilgan, ijtimoiy jamoalarning o'zaro ta'siri maydoni sifatida shakllanadi. Bu esa ijtimoiy muhit omillarining asosiy ta'siriga ega bo'lgan va juda muhim hisoblangan dunyo makrotizimi sifatida ifodalanishi mumkin (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. Ijtimoiy hamjamiyat sifatida ijtimoiylashuv makrotizimi darajalari

Ijtimoiy jamiyat turlicha ko'rinishdagi ijtimoiy jamoalar va guruhlarning o'zaro bir-biriga ta'siri maydoni sifatida shakllanadi. Bu makonda insonni, xususan, shaxsni umumlashtirilgan narsalardan ajratish deyarli imkon darajasida emas. Jumladan, global muammolar, siyosiy-iqtisodiy muammolar, ekologik inqirozlar, ijtimoiy muhitdagi sezilarli darajadagi farqlar, irqiy va etnik qarama-qarshiliklar, davlatlararo qarama-qarshiliklar – bu ma'lum darajada ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir qiluvchi megaomillar va makroomillar hisoblanadi. Ta'lim makonining birligi, jahon va davlatlararo darajadagi ijtimoiylashuv jarayonlariga

yuklatilgan muammolarni hal qilish jarayoni jamiyat maqsadlarini bajarishga qaratilgan strategik boshqaruv va tashkil etish ta'siri bilan ta'minlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv ta'siri faqat shaxsning quyidagi xususiyatlariga tayangan taqdirdagina muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni ta'minlaydi:

1) qachonki shaxs o'z taqdirini o'zi belgilay olsa, o'zini o'zi anglay olsa va o'zini takomillashtirishga harakat qilganda, u ustun bo'lgan motivatsion imtiyozlarga ega bo'ladi;

2) qachonki shaxs o'zining qadriyat yo'nalishini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lsa;

3) qachonki shaxs o'zining ijtimoiy rollariga tanlangan munosabatda bo'lsa, shuningdek, shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy rollar talablari o'rtasidagi muvozanatni topa olish qobiliyati ega bo'lsa;

4) aniq talablarga emas, balki umuminsoniy qadriyatlarni tushunishga yo'naltirish mavjud bo'lsa.

Kasbiy ta'lim talabalarining asosiy faoliyati sifatida qaraladi. Talabalar ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiylashadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvi**" deb nomlanib, unda kasbiy ijtimoiylashuv va uning asosiy elementlari, oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'sir etuvchi omillar, o'quv-tarbiya jarayoni orqali talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish, bo'lajak mutaxassis kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar tahlili ochib berildi.

Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida – kasbiy ijtimoiylashuv alohida o'rinni egallaydi. Inson hayoti davomida muayyan kasbiy vazifalarni bajaradi, mehnat qiladi. Shuning uchun ham inson birinchi o'rinda, o'zi uchun zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy ijtimoiylashuv jarayoni – bu ikkilamchi ijtimoiylashuv jarayoni hisoblanadi. Shaxsning kasb tanlashiga uning oilasi katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramay, shaxsning kasbni o'zlashtirishida asosiy ijtimoiylashuv ta'siri oiladagi bolalik davrida emas, balki shaxs ancha kattaroq bo'lganida va oiladan tashqarida, masalan ta'lim tashkilotlarida, xususan, maktab, kollej, litsey, texnikum, oliy ta'lim tashkilotlari va ish joylarda sodir bo'ladi.

Ijtimoiylashuv davridagi hayotning asosiy sohalaridan biri bu mehnat sohasi va kasb tanlashdir. Kasbiy o'zini-o'zi belgilash insonning butun kelajakdagi hayotida iz qoldiradi, chunki kadrlar va kasbiy tuzilma jamiyatning tabaqalanishining asoslaridan biridir.

Shu sababli, kasb tanlash – bu bo'lajak mutaxassisning ham kasbiy sohada, ham jamiyatdagi mavqeiga muvaffaqiyatli ta'sir qilishi mumkin bo'lgan mas'uliyatli qadamdir.

Tadqiqotchi olim I.Kon yoshlarning kasbiy o'zini-o'zi belgilashini quyidagi pozitsiyalarda ko'rib chiqadi:

- sotsiologik, jamiyat tomonidan shakllanayotgan shaxs oldiga qo'yadigan, ma'lum bir davr mobaynida izchil hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar qatori sifatida;

- ijtimoiy-psixologik, qaror qabul qilish jarayoni sifatida, bu orqali shaxs o'z

moyilliklari va mavjud ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimi ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni shakllantiradi va optimallashtiradi;

- differensial-psixologik, shaxsiy hayot tarzini shakllantirish jarayoni sifatida, uning bir qismi kasbiy faoliyatdir.

Kasbiy yo'l – bu inson shaxsini kasbiy faoliyat maydoniga, ish joyidagi kasbiy munosabatlar muhitiga kiritish jarayonidir. Kasbiy yo'l – shaxs tomonidan o'zlashtirilgan qadriyatlar, faoliyatdagi me'yorlar va qabul qilingan qoidalarni qayta ishlash yo'li bilan faol takrorlash jarayoni hisoblanadi. Kasbiy ijtimoiylashuv jarayoni zaruriy faktlarni barqaror tarzda tahlil qilish, natijani bashoratlash mumkin bo'lgan sharoitlarda faollik ko'rsatuvchi soha mutaxassislarini, yangi, tez o'zgarib turadigan, noaniq vaziyatlarda ishlashga yo'naltirilgan mutaxassislarni etarli daraja bilan aniqlash imkonini beradi.

kasbiy ijtimoiylashuv jarayoni oliy ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan o'quv-tarbiyaviy jarayoni atrofida sodir bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi sohasida talabalarning kasbiy faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi ayrim ichki omillar mavjud. Ijtimoiylashuv:

- ayrim hollarda tayyor mutaxassisning bilim darajasi va bozor talablarining mutaxassis tayyorligi o'rtasidagi tafovutlar – diplomdagi mutaxassislik bo'yicha ishlashga joylashishda ro'y beradigan qiyinchiliklarga olib keladi, hatto bu mutaxassis imtiyozli diplomga ega bo'lsa ham;

- abituriyentlar muayyan mutaxassislikni egallashni xohlashi, ammo bu mutaxassislik bo'yicha kvotalarning mavjud emasligi, bu esa keyinchalik shaxsning ichki qarama-qarshiliklariga sabab bo'ladi, buning natijasida u shug'ullanayotgan mehnat faoliyatining haqiqiy kasbiy mazmuni uning xohishiga zid keladi;

- zarur mablag'ning etishmasligi hisobiga ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda ba'zan qiyinchiliklar yuzaga keladi, shuningdek, mutaxassislar tayyorlash uchun malakali pedagog kadrlar yetishmasligi holati uchrab turadi va boshqalar;

- ayrim hollarda ta'lim tashkilotlarining o'quv rejasidagi o'quv fanlari mazmuni bo'lajak mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyati mazmuniga mos kelmasligi;

- va shunga o'xshash boshqa qiyinchiliklar uchrab turadi.

OTTdagi ijtimoiylashuv ta'sirining samaradorligiga turli omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. K.Lebedevning fikricha, bularga quyidagilar kiradi:

- "O'qituvchilar bilan muloqotning ta'siri (shu jumladan, ularning shaxsiy ma'lumotlari).


- O'quv kurslarini tashkil etish mazmuni va shaklining ta'siri. O'quv mashg'ulotlarining texnik jihozlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

- Talabalar kasbiy faoliyatni amalga oshirishi mumkin bo'lgan tashkilotlar bilan OTT aloqalarining mavjudligi.

- Talabalar jamoasida muloqotning ta'siri.

- OTTning kasbiy yo'naltirishga qaratilgan maxsus tadbirlarining ta'siri.


Shunday qilib, kasbiy ijtimoiylashuv jarayonini tashkil etish ikki yo'nalishda, ya'ni makro darajada va mikro darajada amalga oshirilishi kerak.



2.1-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar

Agar, oliy ta'lim tashkilotidagi o'quv-tarbiyaviy jarayon uslubiy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlanmagan bo'lsa, ta'lim tashkilotining imkoniyatlariga

minimal belgilangan talablarga rioya qilmasdan tashkil etilsa, samarali ijtimoiylashtiruvchi ta'sir ko'rsata olmaydi.



2.2-rasm. Globallashtirish sharoitida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish modeli

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan globallashuv sharoitida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish modelining protsessual bloki oliy ta'lim talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonini tashkil etish uchun qo'llaniladigan eng samarali texnik va texnologik vositalar, pedagogik texnologiyalar, usullar, texnikalar majmuasini o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish modelining samarali bo'lib hisoblangan – baholash bloki biz tomonimizdan aniqlagan bir qancha mezonlarni o'z ichiga oladi. Bular: kognitiv mezonlar, hissiy-baholash mezonlari va xulq-atvor mezonlaridir. Sanab o'tilgan har bir mezon talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish qay darajada, ya'ni yuqori darajada, o'rta darajada va past darajada ekanligini diagnostika qilish orqali aniqlash imkonini beruvchi mezon ko'rsatkichlari tizimiga ega bo'lib hisoblanadi.

Modelning maqsadi shundan iboratki, talabalar ham, o'qituvchilar ham talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etishga yo'naltirilgan muloqot va o'zaro ta'sirning yakuniy natijasini taqdim eta oladi. Vazifalar deganda maqsadga erishish va hal qilish uchun zarur bo'lgan harakatlar majmui tushuniladi. Tamoyillar maqsadga erishish uchun asosiy qoidalar va yo'nalishlarni belgilaydi. Modelda qayd etilgan pedagogik shart-sharoitlar esa talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish faoliyatining samaradorligini ta'minlash omillari sifatida aks ettirilgan. Texnologiyalar va shakllar kasbiy ijtimoiylashuv jarayonini tashkil etishni to'liq ta'minlaydi. Sanab o'tilgan usullar yordamida samarali kasbiy ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash uchun kerakli ma'lumotlar mazmuni uzatiladi.

Bugungi kunda zamonaviy oliy ta'lim tashkiloti bitiruvchisi hududiy mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo'lishi talab etiladi. Bunga sabab kasb bo'yicha amaliy tajribaning yetishmasligidir, deb ta'kidlaydilar tadqiqotchilar. Fikrimizcha, bu – birinchi o'rinda, holat ta'lim mazmunining, amaliyot va mutaxassislarining stajirovkalarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan, hududiy mehnat bozorining mutaxassis tayyorligiga oid talablariga muvofiq emasligi bilan bog'liq holatdir.

Ta'lim tashkilotlarida talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tartibga solish masalasi – juda muhim muammolardan biridir. Bizning fikrimizcha, bu muammoning yechimi, quyidagi yo'nalishlarga bog'liq bo'ladi:

1. Talabalar kasbiy ijtimoiylashuvi samaradorligi nafaqat “talaba – OTT” tizimidagi o'zaro munosabatlarning tabiati bilan, balki kengroq ijtimoiy kontekst bilan ham bog'liq bo'lmog'i zarur. Bunda mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollarini, madaniyatning umumiy kontekstini hisobga olish zarur. Shu ma'noda kasbiy ijtimoiylashuv jarayonida talabalar ongida kasbga oid ijobiy obrazlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarining mehnat va o'qishni uyg'unlashtirish muammosi bevosita shu bilan bog'liq.

2. Kelajak kasbini ongli ravishda tanlash uchun talabalar iqtisodiyotning real ehtiyojlarini hisobga oladigan vaziyatlarni yaratishlari kerak. Bu ta'lim tashkilotida talabalarining kasbiy yo'naltirish jarayonini takomillashtirishga yordam beradi. Mamlakatimizda shakllanayotgan demografik vaziyat va ta'lim xizmatlari raqobatining kuchayishini hisobga olingan holda, talabalarining kasbiy tanlovining

ahamiyati ortib bormoqda. Bu tanlovning zamirida yoshlarning ehtiyojlari, ularning o'zini namoyon qilish istagi va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish yotadi.

3. Kasbiy ijtimoiylashuv jarayonining nazorat qilinishini oshirish muammosini hal qilish, shuningdek, ta'lim tashkilotida kasbiy ijtimoiylashuv tizimining mukammal kompleksini ishlab chiqish masalasi bilan bog'liq. U kasbiy kompetentsiyaga oid yondashuvlar doirasida tabaqalashtirish, guruhlarga ajratish, kompetensiyalar majmui, keyin esa kasbiy kompetentsiyaning ajralmas modeli sifatida tavsiflanadi. Bunday tizim o'quv kurslari bilan bog'liq aniq belgilangan tarkibiy qismlarga ega bo'lishi kerak. Bu o'qituvchilarga o'z kurslarida talabalarda qanday kasbiy ko'nikmalar, malakalar, shaxsiy fazilatlarini shakllantirayotgani haqida aniqroq tushuncha beradi, bu esa bu jarayonni yanada ongliroq boshqarish imkonini beradi.

4. Talabalarning kasbiy ijtimoiylashuviga abituriyentning mutaxassislikni ongli ravishda tanlashi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu uning qobiliyatlari va moyilliklariga mos kelishi kerak. Shu sababli, kelajakdagi kasbni shaxsiy tanlashni amalga oshirish faoliyati o'rta ta'lim olish bosqichidan boshlanishi kerak. Zamonaviy abituriyent ko'pincha oliy ta'lim tashkilotiga orzuga tayanmasdan yoki faqat shu ta'lim tashkiloti o'qishi kerak bo'lgan joy ekanligiga ishonch bilan keladi. Oliy ta'lim tashkiloti va kasb tanlashning eng keng tarqalgan sabablari – bu ta'limning maqbul narxi, maktab bitiruvchisining ma'lum fanlardan yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tish qobiliyati, yashash joyiga yaqinligi, oliy ta'lim tashkilotida o'qiyotgan do'stlari va tanishlarining tajribasi.

5. Oliy ta'lim tashkilotlarida professor-o'qituvchilar va talabalar uchun kasbiy ijtimoiylashuvni tashkil etishga doir o'quv dasturlarini ishlab chiqish, fikrimizcha, motivatsion faoliyat asosida amalga oshirilishi kerak. Bu jarayon quyidagilardan iborat bo'ladi: o'quv-tarbiyaviy motivatsiyalar; bitiruvchilarning kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonining asosiy tashkilotchisi sifatida o'quvchilarni ta'lim tashkilotining amaliy faoliyatiga faol tarzda kirib borishini ta'minlash.

Talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etishda ta'lim tizimidagi mintaqaviy omillarni ham, oliy ta'lim sohasidagi mintaqaviy davlat siyosatini ham hisobga olish zarur.

Tadqiqotning **“Talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashda pedagogik tizim samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi, uzluksiz ta'lim tizimi orqali kasbiy ijtimoiylashuv samaradorligini oshirish hamda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlili bayon qilinadi.

Talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etishda ta'lim tashkilotining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati juda muhimdir, talaba aynan oliy ta'lim tashkilotida boshqa insonlar bilan turli muloqot jarayoniga kirishadi va muloqot qilish tartiblarini o'rganadi. Kasbiy muloqotga ham talaba oliy ta'lim tashkiloti muhitida duch keladi. Ana shunda talabada to'g'ri, ijtimoiy sharoitga mutanosib hamda davr talablariga javob beradigan mos kasbiy ijtimoiylashuv ta'minlansa, talabaning

ijtimoiy hayotda shakllanishi va faoliyat olib borishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun zarur bo'lgan baza yaratilgan bo'ladi.


Globalashuv sharoitida talablarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari va bu jarayonning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarining o'rganilishi quyidagi masalalar bo'yicha muayyan munosabatni shakllantirish ehtiyojini tug'diradi:

a) talablarning kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish tizimi mutasaddilari va ular faoliyatlarini tahlil qilish;

b) talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun kasbiy ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi omillar, kasbiy ijtimoiylashuv agentlari, ularning aniq darajalari, muayyan bosqichlari va tashkil etish mexanizmlarini belgilab olish;

c) talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish va ta'minlashda uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga amal qilish.

Tadqiqot jarayonida talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashda o'qituvchi va tyutorlarning o'z faoliyatlariga tayyorlik darajalari quyidagicha belgilandi (3.1-rasmga qarang):



3.1-rasm. O'qituvchi va tyutorlarning o'z pedagogik faoliyatiga nisbatan tayyorlik darajalari

Shunday qilib, oliy ta'lim tashkilotlarida odatda o'qituvchi – ta'lim beruvchi va boshqaruvchi sifatida, tyutor – tarbiyani amalga oshiruvchi va pedagogik amallarni bajaruvchi sifatida o'zini namoyon etadi.

Talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil etish va ta'minlashning didaktik talablari:

1. Talabalarni kasbiy ijtimoiylashuv tushunchasining mazmun-mohiyati, vujudga kelish tarixi, amaliy ahamiyati bilan tanishtirish zarur.

2. Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoninig kasbiy ijtimoiylashuv asosida tashkil qilinishi va bu boradagi zamonaviy tafakkur tarbiya jarayoniga kiritilishi lozim.

3. Talabalar kasbiy ijtimoiylashuvini tashkil qilish uchun o'qituvchilarning bu boradagi bilimlarini kengaytirish lozim.

4. Pedagogik jarayonda ilmiylikka asoslanish, muammoli o'qitishni yo'lga qo'yish, natijani bashorat qilish, muayyan tizimga asoslanish, izchillikka amal qilish, maqsadga yo'nalganlik, individual-psixologik xususiyatlarni hisobga olish, pedagogik jarayonning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash kerak.

